

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

OKTYABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-0-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

BURHONIDDIN MARG'INONIY HAZRATLARI NOMLARI BILAN BOG'LIQ FARG'ONA
VILOYATIDAGI YODGORLIK VA ZIYORATGOHLAR 4-9

IQTISODIYOT FANLARI

Obidova Intizor

SANOAT KORXONALARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT
SIYOSATI 10-19

FILOLOGIYA FANLARI

Xoldorova Xulkaroy

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DINIY MATNLAR USLUBINING EKSTRALINGVITIK
XUSUSIYATLARI 20-23

YURIDIK FANLARI

Axmedov Axadulla

MADANIY MEROS SOHASIDAGI MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY
ASOSLARI TAHLILI 24-30

Nurmamatova Noila

KONSTITUTSIYAVIY SUDLARDA VAKILLIK INSTITUTINING O'RNI VA XORIJIY DAVLATLAR
TAJRIBASI 31-33

Бекимбетова Тумарис

ГАРМОНИЗАЦИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА С ПРАВОМ ЕВРОПЕЙСКОГО
СОЮЗА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 34-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIMIDA PISA USLUBIDAGI TOPSHIRIQLAR ORQALI REAL HAYOTGA
YO'NALTIRILGAN BILIMLAR BERISH 37-39

TARIX FANLARI

BURHONIDDIN MARG'INONIY HAZRATLARI NOMLARI BILAN BOG'LIQ FARG'ONA VILOYATIDAGI YODGORLIK VA ZIYORATGOHLAR

Qirg'izov Baxtiyor Xudobediyeovich

Oriental universiteti tadqiqotchisi

Email: bakhtiyor.kirgizov.77@bk.ru

Tel: +998 91 691 27 77

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda buyuk alloma Burhoniddin Marg'inoniy hazratlarining nomi bilan bog'liq Farg'ona viloyatidagi yodgorlik va ziyoratgohlar o'rganilgan. Tadqiqotda Marg'inoniy hayoti va ilmiy merosining mintaqaviy xotiradagi o'rni, shuningdek, u bilan bog'liq muqaddas maskanlar, masjidlar, maqbaralar va ziyorat joylarining hozirgi holati tahlil qilinadi. Ishda tarixiy manbalar, arxeologik ma'lumotlar hamda mahalliy aholi og'zaki an'analari asosida Marg'inoniy shaxsiga bo'lgan hurmat va ehtiromning zamonaviy ifodalari yoritilgan. Shu orqali Farg'ona vodiysi madaniy merosini asrash, diniy-tarixiy turizmni rivojlantirish va yosh avlodda milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Burhoniddin Marg'inoniy, Farg'ona viloyati, yodgorlik, ziyoratgoh, maqbara, Marg'ilon, diniy meros, islom madaniyati, tarixiy xotira, madaniy turizm.

IN THE NAME OF HIS EXCELLENCY BURHANIDDIN MARGINANI RELATED MONUMENTS AND PLACES OF PILGRIMAGE IN FERGANA REGION

Qirgizov Baxtiyor

Researcher of Oriental University

Fergana, Uzbekistan

Annotation. This thesis explores the monuments and pilgrimage sites in the Fergana region associated with the name of the great scholar Burhoniddin Marg'inoni. The study analyzes the significance of Marg'inoni's life and scholarly legacy in the regional historical memory, as well as the current state of sacred places, mosques, mausoleums, and pilgrimage centers related to his name. Based on historical sources, archaeological data, and oral traditions of the local population, the research highlights contemporary forms of respect and reverence for Marg'inoni. Particular attention is given to the preservation of the cultural heritage of the Fergana Valley, the development of religious and historical tourism, and the strengthening of national identity among the younger generation.

Keywords: Burhoniddin Marginoni, Fergana region, monument, pilgrimage site, mausoleum, Margilan, religious heritage, Islamic culture, historical memory, cultural tourism.

«Sohibi Hidoya» ziyoratgohi buyuk faqih Burhoniddin Marg'inoniy nomlari bilan bog'liq bo'lib, u Zotning asl ismlari Ali ibn Abu Bakr Abdul Jalil Al-Farg'oniy Ar-Roshidoniyal-Marg'inoniydir[4; B.144.]. Bu zotning nasl nasablari Abu Bakr Siddiq (r.a.) ga borib taqaladi. Islom ensiklopediyasida quydagicha ma'lumotni uchratishimiz mumkin: "To'liq ismi - Abu-l-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdu-l-Jalil al-Farg'oniy al-Rishtoniy al-Marg'inoniy". Burhoniddin Marg'inoniy hijriy 511 (mil.1118-y.) sanasi rajab oyining 8-kuni dushanba choshgoh paytida Farg'onaning Rishton tumanida, Chinnigaron mahallasi Dahbed mavzeida tavallud topgan[1; B.10.]. S.A.Isxoqov o'zining "Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari muhim huquqiy manba" nomli nomzodlik dissertasyasida Marg'inoniy tavallud va vafotlari haqida quydagilarni

keltiradi: Burhoniddin Marg'inoniy hijriy 515 yil rajab oyining 12-kuni seshanba (milodiy 1123-yil 23-sentyabr) da Farg'ona vodiysining Roshidon qishlog'ida tavallud topganlar. Ul zot hijriy 593 yil, zulxijjaning 14-kuni, milodiy 1197-yil 29-oktyabrda seshanba kuni 74 yoshlarida vafot etganlar. XII asrda Roshidon deb atalib, o'sha davrda shaharning atrofida 9 ta katta maqbara va 4 ta katta masjid bo'lgan. Bomdod namoziga azon chaqirilganda butun shaharning atrofidagi qishloqlar aholisiga eshilib turgan. Hozirgi kunda Rishton shahri Chinnigaron mahallasi Daxbed mavzesida "Sohibi Hidoya" ("Hidoya"ning egasi) nomli qabriston mavjud bo'lib allomaning maqbarasi shu muqaddas maskanda bunyod etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarida Sohibi "Hidoya" haqida alohida e'tibor bilan to'xtalib o'tganlar. Farg'onaning tabiati haqida ham gapirib o'tib "Ajoyib meva bo'lub "dona kalon" derlar, chuchukligida zardolu mayhushlig'idin andak choshni bor. Samnon anorlarig'a tarjeh qisa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib qurutirlar, "subhoniy" derlar, bisyor lazizdur. Ovi qo'shi yaxshidur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur. Sohibi "Hidoya" Marg'inonning Rushdon otliq kentidandir" deb bayon qilingan[2; B.7.]. Rivoyat qilishlaricha, matafakkir shoir Zahiriddin Muhammad Bobur So'x va Hushyor tomondan kelayotib, Roshidondan o'tayotganlarida birdan otdan tushadilar va mulozimlariga ham otdan tushishini buyiradi. Shunda mulozimlaridan biri bu hol sharhini so'raganlarida Bobur: "Men ulug' pirlarimiz diyori bo'lmish, bu qutlug' joydan otliq o'tmoqqa hoyo qilurmen. Agar undoq qilsam bu hol kibru havo belgisi bo'lur va yaratganga hush kelmas. Pirlar barhayotdir", degan ekanlar. Bundan ko'rinib turibdiki, Bobur hazratlari so'zlarida ulug' avliyolar qatori Burhoniddin Marg'inoniy ham nazarda tutganlar. Burhoniddin Marg'inoniy hazratlari 8 jildlik sharh "Kifoyat al-muntahiy" asarini va shu asosda keyinchalik "Kitob Al-Hidoya" asarini o'n uch yilda ta'lif qildilar[9.].

1990-yillarda buyuk faqih maqbarasi joylashgan ziyoratgohda obodonlashtirish va qayta ta'mirlash ishlari boshlandi. Farg'ona viloyati Rishton shahri, Chinigaron mahallasi, "Dahbed" mavzesidagi "Sohibi Hidoya" qabristonida maqbara aniqlandi va Burhoniddin Al-Marg'inoniy Ar-Roshidoniya maqbarasi deb nomlandi. Haroba bo'lib yotgan bu qabrni tiklash va uni tamirlash masalasi 1992-yildayoq Rishton shahri Chinnigaron mahallasining "Navro'z" bayramini o'tkazish kengash yig'ilishida buyuk alloma to'g'risida masalasi ham ko'tarildi. 1992-yil 2-apreldagi Rishton shahar hokimligining №5-sonli qarori bilan "Sohibi Hidoya" qabristonini obodonlashtirish va Ar-Roshidoniya maqbarasini ta'mirlash qayd etilgan. Bu qarorga binoan maxsus kamissiya tuzildi. Ushbu ishlarni olib borish uchun kamissiya raisi etib shahar kengashining raisi Shermuhammad Mirzaolimov tayinlandi. Uning a'zolari tarkibiga Burhoniddin Marg'inoniy tug'ilgan mahalla - "Chinigaron" mahalla fuqorolar yig'ini raisi Yigitali Ergashev, Shahar kengashi deputati Madaminjon Bobojalolov, "Guzar" mahallasi raisi Ergashboy Haydarov, "Mamadali Topvoldiev" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mashrabboy Dadaboev, "Dorilomon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Abdurashid Olimov, "Noskar" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Qurbonali Qodirov kabilar kiritildi.

1994-yil iyul oyigacha maqbarani tamirlash ishlari sustlashib bordi. 1994-yil 18-iyulda shahar hokimligi №30-sonli "Mustaqilligimizni 3 yilligi munosabati bilan "Burhoniddin Ar-Roshidoniya" maqbarasi ta'mirlash ishlarini davom ettirish to'g'risida" farmoyishi qabul qilindi. Maqbara qurilishining bosh m'mori Farg'onaning Mindon qishlog'idan Oltinboy usta o'z shogirdlari bilan qurilishni so'ngiga yetkazdilar. Maqbara qurilishi va uning naqshlarini

chizishda O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi Ibrohimjon Komilovning xizmatlari katta bo'ldi. Maqbaraga kiraverishdagi darvozani ikki yil ichida o'z hisobidan shahar fuqarosi Meliqo'zi Haydarov qurib bitkazgan. Ziyoratgoh atrofida tuman gazlashtirish idorasi boshlig'i Nabijon Omonqulov ziyorat qiluvchilar uchun 4 xonali hashamatli bino qurib bergan. Maqbarani naqshinkor eshiklarini Rishton tumani Amirobod qishlog'idan Valixon Hoji Hoshimov oilasi nomidan tufha qildi[9.]. 1997-yil 8-mart kuni Rishton tuman hokimining №78-sonli qarori bilan Shayxul Islom Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr al-Marg'inoniy ar-Roshidonoy nomini abadiylashtirish, hamda uning maqbarasini tamirlash va obodonlashtirish uchun "Burhoniddin Ar-Roshidoniy Al-Marg'inoniy" nodavlat xayriya jamg'armasi tuzildi hamda uning ta'sischilari va ijrochi xodimlari tasdiqlandi. 2000-yil 19-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №17-raqamli "Burhoniddin Al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binonan Farg'onada uning xotirasini abadiylashtirish, alloma me'moriy yodgorligini qayta tiklash-tamirlash bo'yicha xayrli ishlar amalga oshirildi.

Burhoniddin Marg'inoniy maqbarasi qayta ta'mir etildi. 2003-yil 22-avgust kuni «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyoz berish to'g'risida» №364-sonli qaroriga asosan Madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish inspektsiyalari bilan tuzilgan «Foydalanish va muhofazalash shartnomalari» asosida O'zbekiston Musulmonlari idorasi tasarrufiga foydalanish uchun 15 ta ziyoratgoh, shu jumladan «Sohibi Hidoya» ziyoratgohini ham mazkur idoraning maxsus jamg'armasiga foydalanish uchun birlashtirib berilgan edi[9].

Imom Abdulaziz Marg'inoniy ziyoratgohi. Marg'ilon shahrining Mashad mahallasida joylashgan bo'lib, xalq orasida "Ulug' mozor", "Quruq mozor", "Chaqqa mozor" nomi bilan mashhur bo'lgan ziyoratgoh Imom Abdulaziz Marg'inoniy ziyoratgohidir. Dastlab 1939-yili me'mor O.Zaynutdinov tomonidan o'rganilgan. 1939-yili Katta Farg'ona kanalining qazilishi munosabati bilan qadimshunos olimlar kanal o'tgan hududlarning tevarak-atrofidagi ko'plab tarixiy yodgorliklarni tadqiq etishga muvassar bo'lgan edilar. Jumladan, O.Zaynutdinov ham Mashad mahallasidagi mazkur ziyoratgohni ko'zdan kechirar ekan, quyidagilarni ma'lum qilgan: "Mashaddagi mozorga bundan 200 yilcha muqaddam domla Sayyid Muhammad Oxun dafn etilgan. Shuningdek, bu yerga 1000 yil oldin Xoja Orif Marg'inoniy hamda 200 yil avval avliyo zot Sherari devona ham dafn etilgan". O.Zaynutdinovga ko'ra, ming yil avval dafn etilgan Xoja Orif Marg'inoniy aslida Imom Abdulaziz Marg'inoniy bo'lsa kerak. Naql qilishlaricha, Ulug' mozorga Imom Abdulaziz ibn Abdurazzoq ibn Nasr ibn Ja'far ibn Sulaymon ibn Sukkon al-Marg'inoniy dafn etilgan[[6; B.255.]. Ma'lumotlarga ko'ra, uning oltita olim o'g'li bo'lgan. Ularning hammasi o'z zamonasida dars berishga qodir va taqvodor kishilar bo'lib etishgan edilar. Imom Abdulaziz o'z o'g'illari bilan ko'chaga chiqsa, odamlar otalarini ham qo'shib, "bitta onadan (tug'ilgan) yettita rahmat xazinasiga yo'llari ochilganlar chiqishdi", der ekanlar. Imom Abdulaziz imom Abul Hasan Zamir ibn Hasan va boshqalardan dars tinglagan. Shayx Laknaviy uning o'g'illaridan Abul Hasan Zahiriddin Ali va Shamsuddin Mahmud Al-O'zjandiy juda mashhur ekanliklarini aytadi. Shuningdek, "Bitta hovlidan ettita ilmga maftun bo'lganlar chiqdi" iborasi ham unga tegishlidir. Imom Abdulaziz haqida uning o'g'illari rivoyat qilganlar. U Samarqandga ketib, o'sha yerda yashaydi. Hadis ilmidan dars beradi. Keksaygach, o'z yurtiga qaytib, 477 hijriy (1084) yili Marg'ilon shahrida 68 yoshda vafot etgan. Demak, ushbu

ma'lumotdan ko'rinadiki, Imom Abdulaziz 410 (1016) yilda dunyoga kelgan. Rivoyatlarga ko'ra, Imom Abdulaziz Mashad mahallasida tavallud topganligi uchun uni shu yerga dafn etishgan ekan[4; B.256.]. Shu asnoda mashhur allomaning qabri marg'ilonliklar uchun muqaddas ziyoratgohga aylangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Movarounnahrga hukmronlik qilgan har bir sulola Imom Abdulaziz al-Marg'inoniy avlodlariga nisbatan ham yuksak ehtirom bilan qarab kelganlar. Ul zotning chevaralaridan biri bo'lmish Imom Hasan ibn Mansur ibn Mahmud ibn Abdulaziz al-Marg'inoniy tarixda Imom Qozixon nomi bilan dovrug' qozongan. Imom Qozixon ko'p yillar davomida Buxoroda qozi bo'lib turgan va bu yerda bir necha kitoblar yozgan. Uning qabri Buxoro shahrining Kalobod guzarida joylashgan. Hozirgacha buxoroliklar orasida Imom Qozixon to'g'risida quyidagi rivoyat saqlanib qolgan. Naql qilishlaricha, Chingizxon avlodidan bo'lmish Xulaguxon Buxoroga bostirib kirmoqchi bo'lgan. U shaharga kirishdan oldin xalqni to'plab: "Oldin bir savol beraman, to'g'ri javob bersangizlar yaxshi, ammo noto'g'ri javob bersangizlar Buxoroning kulini ko'kka sovuraman. Savolim shunday? Meni sizlarning yurtigizga kim yetakladi? Nima sababdan men bu yurtga keldim". Xulaguxonning bu jumboqli savoliga hech kim javob berishga jur'at qila olmagan. Oxir-oqibatda muhlat tugab Buxoro xalqini qirg'in-barot qilish uchun Xulaguxon qonli qilichini yalang'ochlagan bir damda mo'g'ul xonining huzuriga javob berish uchun o'spirin yoshdagi Imom Qozixon bir tuya va echkini etaklab kirib kelibdi. Imom Qozixonning bu tarzda kirib kelganidan xonning jahli chiqib: "Buxoroda sendan kattaroq odam qurib qoldimi? Mening savolimga javob bera oladigan odam hali senmi?" debdi. Shunda Imom Qozixon: "Qari, katta odam desangiz ana tuya, sersoqol desangiz mana echki, savolingizga esa javobni men beraman: Sizni bizga o'zimizning yomonligimiz yetakladi", deb javob beribdi. Xulaguxon Imom Qozixonning javobidan mamnun bo'lib, uni Buxoro qozisi etib tayinlabdi va: "Hech kim menga bunchalik dono javob bermagan edi, tila tilagingni", debdi. Imom Qozixon menga tuya terisiga sig'gudek joy bersangiz, deb aytibdi. Xulaguxon uning bu tilagini bajarishga rozi bo'libdi. Shunda Imom Qozixon tuya terisini sochning tolasiday qilib kesib, butun Buxoroni o'rab olgan ekan. Xulaguxon Imom Qozixonning bunday donoligini ko'rgach, va'dasiga vafo qilib ortga qaytib ketibdi.

"Puri Siddiq Shoh Jalil va Podshoh Bibi" ziyoratgohi. Marg'ilon shahri, Yo'rmado'z mahallasida joylashgan, dastlab XVII asr o'rtalarida qurilgan. A.Z.Validovning keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro xoni Subhonqulixon (1680-1702) tomonidan Puri Siddiq ziyoratgohiga vaqf yeri ajratilgan edi[4; B.147.]. Ma'lumotlarga ko'ra, Puri Siddiq ziyoratgohi va shu nom bilan ataluvchi masjid madrasa uchun Puri Siddiq, To'qsoba mahallasidagi do'konlar, Oq ariq, Toshloq, Zarkent, Varzak, Qaqir, Boyiston qishloqlaridagi yerlar vaqf qilingan bo'lib, ulardan yer solig'i ham olinmagan. Bu haqida Qo'qon xonlari Madalixon, Xudoyorxon tomonidan Puri Siddiq ziyoratgohi mutavallilariga maxsus yorliqlar berilgan. Puri Siddiq ziyoratgohi haqida so'z yuritishdan oldin "Puri" so'zining ma'nosiga e'tibor beraylik. Fors tilida "Puri" so'zi "o'g'il" va "to'la", "ko'p" ma'nosini anglatadi[4; B.148.]. Ushbu maqbaraga 1-xalifa Abu Bakr Siddiq (r.a) ning (572-634) nabirasi Shoh Jalil va uning singlisi Podshoh Bibi dafn etilgan va shu sababdan ziyoratgoh Puri Siddiq deb atalgan. Ziyoratgoh tarkibidagi Chillaxonada Sohobi Hidoya bo'lgan Burhoniddin Marg'iloniy Ar-Roshdoniy hazratlari 13-yil mobaynida uzluksiz ro'za tutib 4-mazhabga doir bo'lgan "Al-Hidoya" asarini ta'lif qildilar. 1197-yili, 74 yoshlarida hazratimiz vafot etganlar. Amirul mo'minin Hazrat Usmon (tahm. 575-656) Zunnurayn davrida sahobai kibor va tobe' nomdorlarni bilan Farg'ona diyoriga yuboradi. U

vaqtlarda bu sarzamindagi kishilar mug'lar toifasidan bo'lib, otashparast edilar. Jangda otashparast jangchilar son jihatidan islom qo'shinlaridan ustun keladilar va ularni daryo o'rtasida qatl etadilar. Shu tarzda Marg'ilonga Puri Siddiq dafn etiladi. Ushbu ziyoratgoh 2007-yili Burhoniddin Marg'iloniyning 910 yillik yubileyi arafasida milliy me'moriy uslubda qayta bunyod etilgan. Tarkibida Burhoniddin Marg'iloniy "Al-Hidoya" asarini yozgan chillaxona g'ori ustiga tiklangan "Chillaxona" yodgorligi, ikkita peshayvonlar, gulzorlar va Shoh Jalil va uning singlisi Podshoh Bibi dafn etilgan maqbara mavjud[9]. Eng asosiy jihatlaridan biri shundaki mazkur ziyoratgohda qadimgi davrlarda maktub tashigan kabutarlarning ming-minglab bolalari hozirgacha mavjud bo'lib, ziyoratchilarga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Uzoq-yaqindan kelgan sayohatchilar bu kabutarlarga o'z tilaklarini niyat qilgan holda Alloh taoldan so'rab, bug'doy yoki arpa donlarini sepib berib, ulardan este'tik bahra va ruhiy taskin oladilar.

Go'ri avval mahallasi atamasining tarixi. Mana necha asrlardan buyon ajdodlarimizdan avlodlarga naql bo'lib kelayotgan rivoyatlarga ko'ra Marg'ilon shahrining Go'ri avval mahallasining bunday atalishi aynan Burhoniddin Marg'inoniy hazratlari nomlari bilan bog'liq. Tarixchi-elshunos olimlar Nodirbek Abdulahatov va Tolib G'oziyevlar o'z tadqiqotlarida "Go'ri avval" ziyoratgohini 27 tartib bilan Marg'ilon ziyoratgohlari sirasiga kiritganlar[7; B.318.].

Naql qilinishicha hazrat Burhoniddin Marg'inoniyning namanganlik bir ulug' zot bo'lgan birodari ziyorat qilgani keladilar. Shunda unga marg'ilonliklar Burhoniddin Marg'inoniy hazratlari olamdan o'tib qolganliklarini aytishadi. Ammo, hazratning birodarlari esa buyuk Faqixni qazo qilganiga ishonmasligini qayta-qayta ta'kidlab, hazratning qabrini ko'rsatishlarini so'raydi. So'ngra, osha kishi hazratning qabirini ochishlarini so'raydi. Ko'plan e'tirozlarga qaramasdan hazratning qabrini ochirtiradi. Shu jarayonda qabr ochilgach u yerda hazrat tirik ekanligi namoyon bo'ladi. Bunday karomatni ko'rgan mahalliy aholi Burhoniddin Marg'inoniy hazratlarini tirikligini qayerdan bildingiz den namanganlik mehmondan so'rashganda, buni sirini payg'ambarimizning hadislarimizdan bashorat qildim. Chunki Rasuli akram alayhi salom "Kimki bir ishni Alloh taoloni roziligi uchun niyat qilib chorshanba kuni boshlasa, albatta oxiriga yetkazmasdan bu dunyodan o'tmaydi" deb, marhamat qilganlar. Hazrat Burhoniddin Marg'inoniy ham Xudo taoloni roziligini istab "Hidoya" asarini aynan chorshanba kuni yozishni boshlaganlar. Men shu hadisdan hazratni tirikligini imon basiratim bilan bashorat qildim. Negaki Rasululloh hech ham aldamaydilar" deb aytgan ekanlar. Shu tufayli hazrat dafn qilingan ushbu mahalla o'sha olamshumul voqeadan boshlab "Go'ri avval" ya'ni "Birichi qabr" deb atala boshlangan ekan[9].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O.Qoriyev Al-Marg'inoniy mashhur fiqhshunos, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 2000 yil.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev. Boburnoma. T, "Yulduzcha" nashriyoti, 1989 yil.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, B xarfi.
4. Eraliyev B., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjo: Farg'ona viloyati. T.: "Turon Zamin Ziyo" nashriyoti, 2014 yil.
5. M.Xayrulliyev, to'plovchi va nashrga tayyorvchi. Ma'naviyat yulduzlari. – T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001 yil.

6. Abdulahatov N., Eshonbobyev O'.Ko'hna Marg'ilon ziyoratgohlari, Farg'ona nashiryoti, 2007 yil.
7. Nodirbek Abdulahatov, Tolibjon G'oziyev. "Burhoniddin Marg'inoniy tarixiy haqiqat va asotirlar", Yangi asr avlodi, Toshkent, 2010 yil.
8. B.X.Qirg'izovning Marg'ilon shahrida joylashgan ziyoratgohlarni o'rganishidagi shaxsiy etnografik kuzatuvlari.
9. B.X.Qirg'izovning Rishton tumanidagi ziyoratgohlarni o'rganishidagi shaxsiy etnografik kuzatuvlari.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.